

3. Rasmlar asosida ertaklar nomini ayting va yoqtirgan ertagingizni so'zlab bering. Partadoshingizga sevimli ertak qahramonlaringizni ayting.

### **O'qituvchi uchun eslatma:**

Ertak qahramonlarini nomini aytganda avval ertak nomi eslatilishi kerak bo'ladi. Bu qahramonning qanday ekanligi uni ertakdagi gaplari ham eslatish tavsiya etiladi. Darslikdan tashqari shu ertakda ishtirok etgan qahramonlarning rasmini ko'rsatish tavsiya etiladi.

### **Daftар bilan ishslash: (10 daqiqa)**

1. 1. Ee harfini tegishli rangga bo'yang. Nima uchun bu rangni tanlaganiningizni izohlang.
2. Eshik, etik so'zining chizmasida [e] tovushining o'rnnini aniqlang va tegishli kataknini bo'yang.
3. Berilgan namunadan bosma Ee harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.
4. Bo'g'in va so'zlarni avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.
5. E harfining o'rnnini topib, bo'yang.

### **Darsga yakun yasash:**

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Sizga nima qiziq bo'ldi?

## **28-mavzu: [e] tovushi. Ee harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar**

### **Dars maqsadi:**

- [e] tovushining talaffuzi va Ee harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [e] tovushining o'rnnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so'zlar:** [e] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

**Didaktik materiallar:** ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmi li kartochkalar, kesma harflar.

### **Darsning borishi:**

#### **I.Kirish qismi (5 daqiqa)**

#### **Faollashtirish mashqi:**

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga kuz tasvirini qo'yadi. O'quvchilardan rasmga qarab so'roq gap tuzishlarini so'raydi.

- Bugun siz bilan "Gap tuzamiz" mashqini o'tkazamiz. Doskadagi "Kuz manzarasi" rasmni mayzuda so'roq gap tuzing. O'rtoqlaringiz esa unga javob beradilar.

## Asosiy qism (40 daqiqa)

### 1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida e harfi bilan boshlanadigan 4 ta harfli 3ta so'z hosil qilishni so'raydi.

*Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlariningizni partadoshingizga o'qib bering.*

**Amaliy topshiriqni muhokama qilish:**

- Qanday so'zlar tuza oldingiz?
- Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?
- Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

### 2.Mavzuni mustahkamlash: (5daqiqa)

**O'tilgan harflar harflar tasmasidan aniqlanadi.**

O'qituvchi [e] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

beshik (rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 2 bo'g'in, 1- bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. E harfi bu so'zda 2-katakda ekanligini aniqlab shu kataklarni bo'yaydi.

### Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

*Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.*

"Moslashtiring" mashqi bajariladi.  
Rasmni ifodalovchi so'zlar ularga tegishli chizma bilan bog'lanadi.  
(Elak, eshak, echki, ellik)

**Darslik**

[e] tovushi. E e harfi      28-dars

Rasmidan E harfi qatnashgan so'zлarni toping va ularga mos chizmani ko'srating.

**E** 50

bek      be-kat      e-tak      ter-ma  
kel      ke-lin      le-kin      be-ma-lol  
ket      ket-mon      te-kin      be-da-na

A-na, ke-ma kel-di.  
Ke-ma-da El-bek kel-di.  
El-bek ni-ma o-lib kel-di?  
El-bek to-ti o-lib kel-di.

Kimki kelsa mehmonga,  
O'tadi men tomonga.  
Tutqichimdan ushlaydi,  
So'ngra qadam tashlaydi.  
G'irchillab, aytib qo'shiq,  
Sizga ochilar ....

**39**

**sahifasini shu dars beti rasmi**

*1. Berilgan so'zlarni navbat bilan ketma-ket o'qitiladi.*

*2. Berilgan gaplar navbatma-navbat o'qitiladi. Gaplarning tinish belgisiga e'tibor qaratiladi. So'roq gaplarning ohangi ustida ishlanadi.*

*Ana kema keldi.*

*Kemada Elbek keldi?*

*Elbek nima olib keldi?*

*Elbek to'ti olib keldi.*

*3. Rasm asosida she'rga mos so'zni topib davom ettiring.*

*Nuqtalar o'rniغا mos so'zni qo'yib she'r o'qituvchi yoki o'qishni biladigan o'quvchi tomonidan o'qib beriladi.*

*Kimki kelsa mehmonga,*

*O'tadi men tomonga.*

*Tutqichimdan ushlaydi,*

*So'ngra qadam tashlaydi.*

*G'irchillab, aytib qo'shiq,*

*Sizga ochilar ... .*

*4. Topgan so'zlarining tovushlar sonini aniqlang. [eshik]*

### **Daftар bilan ishslash: (10 daqiqa)**

*1. Harflardan bo'g'inlar jadvalini tuzing va jadvalni to'ldiring.*

*2. Rasmlardan ke, me, be bo'g'inlari bilan boshlanadigan so'zlarni toping.*



*3. E harfini to'g'ri yozilgan harflar bo'ylab eman daraxti oldiga ko'rsatkich chizish orqali olib boring.*

### **Darsga yakun yasash:**

*-Qanday tovush bilan tanishdingiz?*

*-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*

*-Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?*

*-Qanday mashqlarni uuda takrorlay olasiz?*